

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

YULDASHEV JAXONGIR INOMOVICH

**KORPORATIV BOSHQARUVDA SUN'IY INTELEKTDAN
FOYDALANISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации
Content of the doctoral (DSc) dissertation abstract

Yuldashev Jaxongir Inomovich

Korporativ boshqaruvda sun'iy intellektdan foydalanishni huquqiy tartibga solish.....3

Юлдашев Жахонгир Иномович

Правовое регулирование использования искусственного интеллекта в корпоративном управлении.....29

Yuldashev Jakhongir Inomovich

Legal regulation of the use of artificial intelligence in corporate governance.....58

E'lon qilingan ishlar ro'yxati.....63

Список опубликованных работ

List of published works

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

YULDASHEV JAXONGIR INOMOVICH

**KORPORATIV BOSHQARUVDA SUN'IY INTELLEKTDAN
FOYDALANISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/Yu255 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) “ZiyoNet” ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Okyulov Omonbay
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Gulyamov Said Saidaxrarovich
yuridik fanlar doktori, professor

Topildiyev Vohidjon Rahimjonovich
yuridik fanlar doktori, professor

Qo‘ldoshev Nuriddin Abdug‘aniyevich
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01. raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 14-dekabr soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sailgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36, faks: (99871) 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1323-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko‘chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 29-noyabr kuni tarqatildi.

(2024-yil 29-noyabr 61-raqamli reyestr bayonnomasi).

I.R. Rustambekov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlari doktori, professor

D.Yu. Habibullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

B.K. Xodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda sun'iy intellektni korporativ boshqaruvga joriy etish futuristik konsepsiyadan (zamonaviy texnologiyalar, ilmiy kashfiyot va ijtimoiy tendensiyalarga asoslangan ijodiy qarash) reallik sari tez rivojlanmoqda. Korporativ boshqaruvga joriy qilingan sun'iy intellekt (keyinchalik matnda korporativ sun'iy intellekt) texnologiyalarining biznes qarorlar qabul qilish jarayonlari, ma'lumotlarni muvofiqlashtirish, tavakkalchiliklarni boshqarishdagi afzalliklaridan foydalanish tobora kengayib bormoqda. Masalan, McKinsey Global Survey ma'lumotiga ko'ra, global miqyosda kompaniyalarning 50 foizidan ortig'i sun'iy intellektning kamida bitta biznes funksiyasini, korporativ boshqaruvda qo'llamoqda¹. Deloitte hisobotiga ko'ra, yirik kompaniyalarning 40 foizi korporativ boshqaruv tizimining bir qismi sifatida xatarlarni boshqarish va muvofiqlikni monitoring qilish uchun sun'iy intellektdan foydalanadi². Korporativ-huquqiy munosabatda sun'iy intellektning huquqiy maqomi (subyektiligi) va huquqiy javobgarligi masalasi noaniq bo'lib qolayotganligi mavzuning dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Jahonda boshqaruvga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda huquqiy tartibga solishdagi noaniqliklar, sun'iy intellekt dasturiy ta'minoti harakati (korporativ qarorlardagi xatolar, ma'lumotlarni qayta ishlashi natijasida shaxsga doir ma'lumotlarga daxl qilishi, yetkazgan zarar va shu kabilar) uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalalari, sun'iy intellekt boshqaruvidagi shaffoflik va hisobdorlik, sun'iy intellektning korporativ axloqqa rioya etishi, korporativ sun'iy intellekt boshqaruvi oqibatida uchinchi shaxslar huquq va manfaatlari himoyasi bilan bog'liq ko'plab muammolarga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda ham bu borada qator samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali O'zbekistonni 2030-yilga qadar innovatsion taraqqiy etgan yetakchi davlatlar qatoridan o'rin egallashi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Sun'iy intellekt texnologiyalari yaqin kelajakning rivojlanish drayveri sifatida O'zbekiston ham ushbu yo'nalishda muhim chora-tadbirlarni belgilamoqda. "Axborot texnologiyalari jadal rivojlantirilishi natijasida 2024-yilning olti oyida raqamli xizmatlar hajmi 21 trln so'mdan oshdi, yil yakuniga 43 trln so'mga yetishi kutilmoqda. Sohada 367 mln dollarlik xizmatlar eksport qilindi. IT-park rezidentlari 577 taga ko'payib, 2 mingtadan oshdi. Sun'iy intellekt ko'plab sohalarga joriy etilmoqda"³. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoniga asosan 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida (52-maqсад) global innovatsion indeksda O'zbekistonning o'rnini yaxshilash va 2030-yilga qadar top-50 mamlakatlar qatoriga kirishi rejalashtirilgan⁴.

¹ <https://www.mckinsey.com/capabilities/quantumblack/our-insights/the-state-of-ai>

² <https://www2.deloitte.com/us/en/insights/searchresults.html?q=AI%20in%20Risk%20Management%20and%20Compliance>

³ https://www.uza.uz/uz/posts/suniy-intellekt-va-startap-loyihalarini-rivozhlantirish-boyicha-taqdimot-otkazildi_624672

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1995, 1996), O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni (2014), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston - 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6079-son Farmoni, 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4996-son, 2021-yil 26-avgustdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5234-son, 2022-yil 8-noyabrdagi “Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–415-son qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-noyabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo‘lga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 717-son qarori va boshqa qonun hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi⁵.

Korporativ boshqaruvda sun’iy intellektdan foydalanishni huquqiy tartibga solish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va universitetlarida, jumladan Massachusetts texnologiya instituti (MIT) Sloan Menejment maktabi, Garvard biznes maktabi, Oksford universiteti, Kembrij universiteti va uning Menejment instituti, Singapur milliy universiteti, Tokio universiteti, Seul Milliy universiteti, Gonkong universiteti, Pekin universiteti, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya), Sankt-Peterburg davlat universitetida (Rossiya) olib borilmoqda.

Korporativ sun’iy intellekt masalasida ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, Massachusetts texnologiya instituti (MIT) Sloan Menejment maktabida sun’iy intellektni korporativ boshqaruvga ta’siri, kengash darajasida qaror qabul qilishi va xavflarni boshqarish, Garvard biznes maktabida korporativ boshqaruvni takomillashtirish va biznes-jarayonlar samaradorligini oshirishda sun’iy intellektdan foydalanish strategiyalari, Oksford universitetida korporativ boshqaruvda sun’iy intellektdan foydalanishning axloqiy jihatlar va huquqiy muammolari, Kembrij universiteti va uning Menejment institutida sun’iy intellektning korporativ boshqaruvga ta’sirini barqaror rivojlanishi bo‘yicha tadqiqotlar olib bormoqda. Osiyoda Singapur milliy universitetida

⁵Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://mitsloan.mit.edu/>, <https://www.hbs.edu/>, <https://www.oii.ox.ac.uk/>, <https://www.cam.ac.uk/>, <https://nus.edu.sg/>, <https://www.u-tokyo.ac.jp/en/>, <https://en.snu.ac.kr/>, <https://www.hku.hk/>, <https://english.pku.edu.cn/>, www.msu.ru, www.spbu.ru va boshqa manbalar asosida amalga oshirilgan.

korporativ etika va uni tartibga solishda sun'iy intellektdan foydalanish, Tokio universitetida biznes va korporativ boshqaruvda sun'iy intellektning huquqiy jihatlari, Seul Milliy universitetida shaffoflik va samaradorlikni oshirish uchun korporativ sun'iy intellektni qo'llash, Gonkong universitetida Osiyo bozorlari bilan bog'liq korporativ sun'iy intellekt boshqaruv, Pekin universitetida sun'iy intellektni korporativ boshqaruvda qo'llashning huquqiy jihatlari masalasida ilmiy izlanishlar o'tkazilmoqda. Bundan tashqari, MDH ilmiy muassasalarida ham bu borada tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Korporativ sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar turli jihatlarni qamrab oladi. Tadqiqotning asosiy yo'nalishlari korporativ etika va sun'iy intellekt bilan muvofiqlik, korporativ boshqaruvda sun'iy intellektdan foydalanishning huquqiy standartlarini ishlab chiqish, ma'lumotlar muhofazasi va inson huquqlarini hurmat qilish, sun'iy intellekt qabul qilgan qarorlar uchun huquqiy javobgarlik, aqlli algoritmlarni aksiyador hamda investorlarning huquq va manfaatlariga ta'siri kabilarga aloqador.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda fuqarolik huquqi, intellektual mulk huquqi, korporativ huquq, kiberhuquq sohalarida tadqiqot predmeti bilan bog'liq muammolar H.R.Rahmonqulov, I.B.Zokirov, O.Ok'yulov, S.S.Gulyamov, N.F.Imomov, I.R.Rustambekov, D.M.Karaxodjayeva, Sh.N.Ro'zinazarov, V.R.Topildiyev, V.Yo.Ergashev, I.Nasriyev, Q.M.Mexmonov, B.R.Topildiyev, A.N.Yakubov, R.X.Xursanov, O.S.Narziyev, S.S.Bozarov, O'.P.Xolmirzayev, A.E.Jumagulov kabi bir qator olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan⁶.

Tadqiqot predmeti doirasida MDH davlatlarida A.T.Zub, A.V.Minbaleyev, M.B.Dobroboba, A.A.Yefremov, A.A.Shitova, A.Yu.Marchenko, T.V.Morozova, Ye.D.Sorokova, R.R.Ushniskiy, D.V.Lomakin, I.S.Shitkina, O.A.Makarova, T.V.Kashanina, A.A.Karsxiya, P.M.Morxat, D.A.Sumskoy, V.A.Laptev, xorijiy mamlakatlarda esa Henry Hansmann, Reinier Kraakman, Blair and Lynn A., David Keay, Renee Adams, Steven Shavell, Andreas Cahn, Margaret M. Armour, John R. M.G.Gault, Louis R. Kaplow, Tirole J., David C. Donald., Chesterman S., Wein L., Colum L., Beck S., Anderson, P., Brown, M., Taylor R. Lee, M. Johnson, A, Smith B. Martin, S, Johnson T, Williams, R., Wilson, J, Thompson K, Zhang L, Li, W, Wang, H, Andrew A. Schwartz, Smith, T., Johnson R., Lee S., Johnson R., Bryson J.J., Diamantis M. E., Grant T. D., Custers B., Leeuw F. va boshqa olimlarning tadqiqotlari mavjud⁷.

Biroq, mamlakatimizda raqamlashtirish, investitsiya jozibadorligi, korporativ munosabatlarni huquqiy tartibga solish bilan bir qatorda korporativ boshqaruvga sun'iy intellektni qo'llashning huquqiy tartibga solish alohida monografik tarzda kompleks tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq

⁶ Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

⁷ Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

“Korporativ boshqaruvda sun’iy intellektdan foydalanishni huquqiy tartibga solish” ilmiy tadqiqotlarining ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi – korporativ boshqaruvda sun’iy intellektdan foydalanishni huquqiy tartibga solish takomillashtirish va uni qo‘llash amaliyoti samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

fuqarolik huquqi predmetining tarkibiy qismi sifatida korporativ-huquqiy munosabatlar hamda ularni fuqarolik huquqining bunyodkorlik funksiyasini amalga oshirishdagi ahamiyatini ochib berish;

fuqarolik huquqi predmeti doirasida korporativ sun’iy intellektni joriy etish bilan bog‘liq ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish;

sun’iy intellektning korporativ boshqaruvda qo‘llashning ahamiyati, genezisi va boshqaruv organlari faoliyatini raqamlashtirish jarayoniga ta’sirini ilmiy jihatdan o‘rganish;

korporativ boshqaruvda sun’iy intellektni qo‘llashda fuqarolik-huquqiy subyektlilik va uning huquqiy maqomi borasida takliflar ishlab chiqish;

korporativ boshqaruvda sun’iy intellekt dasturiy ta’minoti va u tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ilmiy-nazariy tadqiq etish;

sun’iy intellektdan korporativ boshqaruvda foydalanishga bag‘ishlangan ilmiy qarashlarning fuqarolik huquqiy tahlilini amalga oshirish;

korporativ sun’iy intellektni fuqarolik huquqining fundamental tamoyillari doirasida qo‘llanilishi hamda ularni zamonaviy fuqarolik huquqi rivojlanishiga ta’sirining nazariy va amaliy muammolarini tadqiq etish;

O‘zbekistonda korporativ sun’iy intellektning huquqiy asoslari va axloqiy qoidalarini joriy etish bo‘yicha konsepsiya qabul qilish zarurati yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

sun’iy intellekt qo‘llanilgan kompaniyalar qabul qiladigan korporativ boshqaruv kodeksining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash muammolari va ularni hal qilish borasida tadqiqot olib borish;

tadqiqot predmeti doirasida qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishga oid takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sun’iy intellektni korporativ boshqaruvda qo‘llash bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti korporativ boshqaruvda sun’iy intellektdan foydalanishni huquqiy tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, qonunni qo‘llash amaliyoti, xorijiy davlatlar qonunchiligi va xalqaro hujjatlar, yuridik fanda mavjud bo‘lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiy va tizimlilik, analiz va sintez, qiyosiy-huquqiy tahlil, prognoz, statistik ma’lumotlar tahlili, normativ-huquqiy va amaliy tahlil qilish kabi usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sun’iy intellekt loyihalari tajriba-sinovdan muvaffaqiyatli o‘tkazilgandan so‘ng ishchi organning xulosasiga asosan ularni to‘liq amaliyotga joriy qilish, shuningdek loyiha doirasida amalga oshirilayotgan faoliyati to‘g‘risidagi

hisobotlarni ishchi organ tomonidan tasdiqlanadigan muddatlarda va shaklga ko'ra IT-parkning maxsus veb-platformasi orqali taqdim etishni maxsus rejim ishtirokchisining majburiyatlari sifatida belgilash lozimligi asoslantirilgan;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish va ovozga qo'yilgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etish imkoniyatini beradigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilishi zarurligi asoslangan;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish hamda masofadan turib ishtirok etadigan shaxslarning axborot olishga bo'lgan huquqlari asoslab berilgan;

sun'iy intellektdan foydalanish oqibatida yetkazilgan zarar sun'iy intellektni yaratuvchisi yoki mutlaq huquq egasi tomonidan qoplanishi zarurligi asoslantirilgan;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilish, masofaviy ishtirok etish va elektron ovoz berish tizimiga o'tish, masofadan turib ovoz berilganda ovoz berish byulletenlaridan voz kechish lozimligi asoslangan;

elektron jismdagi ovoz berish byulletenlari sanoq komissiyasi tomonidan muhrlanishi lozimligi hamda kuzatuv kengashi mustaqil a'zosining huquqiy maqomini belgilash zarurligi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

korporativ munosabatlar, raqamlashtirish va sun'iy intellektni joriy qilishni takomillashtirish maqsadida Fuqarolik kodeksi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Mualliflik va turdosh huquqlar to'g'risida"gi, "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida"gi qonun va boshqa qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish zarurati asoslantirib berilgan;

fuqarolik qonunchiligida uch pog'onali tartibga solish amaliyotini tanqidiy muhokama qilib, qonunchilikni inventarizatsiyadan o'tkazish va ikki pog'onali tartibga solish tizimini joriy etish asoslantirib berilgan;

sun'iy intellekt xatarlaridan ko'rilgan zararni kamaytirishda sug'urta institutini qo'llash va "Sun'iy intellekt egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risida"gi qonun hujjatini qabul qilish zarurati asoslab berilgan;

O'zbekiston Respublikasining sun'iy intellekt bilan bog'liq normativ hujjatlarini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni inobatga olgan holda Yevropa Ittifoqining "Sun'iy intellekt to'g'risida"gi qonunidan unumli foydalanish maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan;

fuqarolik va soha qonunchiligini sun'iy intellekt hamda sohani raqamlashtirish nuqtayi nazaridan takomillashtirish istiqbollari asoslantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyotida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomalar, statistik ma'lumotlar umumlashtirilib, olingan natijalar vakolatli davlat hokimiyat organlari tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mamlakat iqtisodiy-huquqiy rivojlanishi va korporativ boshqaruv organlari faoliyatini raqamlashtirish, shuningdek sun'iy intellektni qo'llashning zamonaviy tendensiyalarini ilmiy-nazariy tahlili mavjud ilmiy tasavvurlarga qo'shgan hissasi hisoblanadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, undagi qoida va xulosalardan korporativ boshqaruvda sun'iy intellektni qo'llashga oid munosabatlarni tartibga solishni takomillashtirishda foydalanilishi mumkin.

Shu bilan birga sohaga doir ilmiy muammolarni tadqiq etish, huquqni himoya qilish va javobgarlikni belgilashga doir muammolarga ilmiy yechim topish, O'zbekiston Respublikasining fuqarolik huquqi, biznes huquqi sohasidagi qonunchiligini takomillashtirish, "Fuqarolik huquqiga kirish", "Mulk huquqi", "Majburiyat huquqi", "Shaxsga doir ma'lumotlar muhofazasi", "Sun'iy intellekt, robototexnika va huquq", "Korporativ huquq" fanlarini o'qitish va ushbu fanlar bo'yicha yoziladigan darslik, qo'llanma, ma'ruza matnlarini yaratish, o'quv dasturlarini tuzish, ilmiy-tadqiqot ishlari hamda fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot asosida olingan natijalar quyidagilarda o'z ifodasini topgan:

sun'iy intellekt loyihalari tajriba-sinovdan muvaffaqiyatli o'tkazilgandan so'ng ishchi organning xulosasiga asosan ularni to'liq amaliyotga joriy qilish, shuningdek loyiha doirasida amalga oshirilayotgan faoliyati to'g'risidagi hisobotlarni ishchi organ tomonidan tasdiqlanadigan muddatlarda va shaklga ko'ra IT-parkning maxsus veb-platformasi orqali taqdim etishni maxsus rejim ishtirokchisining majburiyatlari sifatida belgilash haqidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-noyabrdagi 717-son qarori bilan tasdiqlangan Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi to'g'risidagi Nizomning 20-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining 2024-yil 13-noyabrdagi 09-09-23-son dalolatnomasi). Mazkur takliflar sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yishga qaratilgan huquqiy asoslarni takomillashtirishga xizmat qilgan;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish va ovozga qo'yilgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilishga oid taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-726-son Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 58-moddasiga kiritilgan yettinchi qismni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2024-yil 5-noyabrdagi 27-son dalolatnomasi). Mazkur taklif aksiyadorlik jamiyatlari umumiy yig'ilishini o'tkazishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy asoslarini belgilashga xizmat qilgan;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish hamda masofadan turib ishtirok etadigan shaxslarning axborot olishga bo'lgan huquqlariga oid taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-726-son Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 62-moddasi uchinchi qismi yettinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2024-yil 5-noyabrdagi 27-son dalolatnomasi). Mazkur taklif aksiyadorlik jamiyatlari umumiy yig'ilishini o'tkazishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy asoslarini va ishtirokchilarning axborot olishga bo'lgan huquqiy kafolatlarini belgilashga xizmat qilgan;

sun'iy intellektni yaratuvchisi yoki mutlaq huquq egasi tomonidan sun'iy intellektidan foydalanish oqibatida yetkazilgan zararni qoplashga oid taklifdan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi yangi tahriri loyihasining 1147-moddasini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat institutining 2024-yil 29-avgustdagi 11-02-289/8-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif nuqsonli tovar (ish, xizmat) oqibatida yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxslar doirasini belgilashga xizmat qilgan;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilish, elektron ovoz berish tizimiga o'tish, onlayn ishtirok orqali ovoz berilganda ovoz berish byulletenlaridan voz kechishga oid takliflari O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-726-son Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 70-moddasi beshinchi qismini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2024-yil 5-noyabrdagi 27-son dalolatnomasi). Ushbu taklif aksiyadorlik jamiyatlari umumiy yig'ilishida ishtirok etish va ovoz berishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy asoslarini belgilashga xizmat qilgan;

elektron jismdagi ovoz berish byulletenlari sanoq komissiyasi tomonidan muhrlanishiga oid takliflari O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-726-son Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 72-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2024-yil 5-noyabrdagi 27-son

dalolatnomasi). Ushbu taklif aksiyadorlik jamiyatlari umumiy yig'ilishida sanoq komissiyasi faoliyatining huquqiy asoslarini belgilashga xizmat qilgan.

kuzatuv kengash mustaqil a'zosining huquqiy maqomini belgilashga oid takliflar O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 18-yanvardagi "Korporativ boshqaruv tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-814-son qonuni bilan "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunga kiritilgan 76¹-moddani ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi Budjet va iqtisodiy islohotlar qo'mitasining 2023-yil 3-oktyabrdagi 04/1-13-28-son, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2023-yil 26-sentyabrdagi 71-son dalolatnomalari). Ushbu takliflar korporativ boshqaruv subyektlari doirasini yanada kengaytirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 17 ta xalqaro va respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya va davra suhbatlarida sinovdan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 32 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, ilmiy jurnallar va to'plamlarda 24 ta (shundan 4 tasi xorijiy nashrlarda) ilmiy maqola va tezislap chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 248 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchlilik, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Korporativ munosabatlar fuqarolik-huquqiy tabiatining ilmiy-nazariy va metodologik asoslari**" deb nomlanib, unda fuqarolik huquqi predmetining tarkibiy qismi sifatida korporativ-huquqiy munosabatlarning umumiy tavsifi, fuqarolik huquqi predmeti doirasida korporativ munosabatlar bilan bog'liq ilmiy nazariya va yondashuvlarning tahlili hamda fuqarolik huquqi bunyodkorlik funksiyasini amalga oshirishdagi ahamiyati,

O'zbekistonda korporativ munosabatlarni fuqarolik-huquqiy asoslarini rivojlanish tendensiyalari tahlil etilgan.

Ushbu bobda dissertant O'zbekiston olimlari (H.R.Rahmonqulov, O.Oqyulov, V.R.Topildiyev, I.B.Zokirov)ning fuqarolik huquqining predmet doirasini kengaytirish borasidagi fikrlarini muhokama qiladi. Ushbu tahlil doirasida g'arb fuqarolik qonunchiligi bilan integratsiyalashuvni kuchayib borayotganligi, ko'plab davlatlar fuqarolik qonunchiligida korporativ munosabatlar fuqarolik huquqining predmeti sifatida nazarda tutilayotganligini ta'kidlaydi. Korporativ munosabatlarga afzallik berilishi, yuridik shaxslarni boshqarish, faoliyatini tashkil etish, investitsiyalarni jalb etish, korporativ axborotlarni oshkor qilish siyosati bilan bog'liq yangi, o'ziga xos munosabat ekanligidir. Korporativ munosabatlarni keng va tor ma'noda tahlil qilgan tadqiqotchilar (T.V.Kashanina, M.Suleymenov, S.Gulyamov) fikrlari hamda rivojlangan mamlakatlar qonunchiligini (AQSH, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Fransiya) o'rgangan holda, ushbu munosabatlarni keng ma'noda talqin qilgan holda fuqarolik-huquqiy munosabatlar tarkibiga kiritish maqsadga muvofiq.

Tashkiliy-huquqiy munosabatga nisbatan korporativ munosabatlarda ommaviy-huquqiy elementlar kam bo'lib, u yuridik tenglik, erk-iroda va mulkiy mustaqillik ustuvorligiga tayanadi. U kompaniya ichki vazifalarini amalga oshirishda korporativ aloqalar asosan ichki hujjatlar (ta'sis hujjati, shartnomalar, axloq kodeksi va h.k.) bilan ko'proq tartibga solinishi, kompaniyaning mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarga kirishishi uchun sharoit yaratishi, fuqarolik huquqi predmeti sifatida keng ma'noda talqin qilish zarurligi hamda mamlakatimizda o'z tarixiy ildizlariga egaligi bilan o'ziga xos ahamiyatga ega.

Dissertant fuqarolik huquqi predmeti doirasida korporativ munosabatlar bilan bog'liq ilmiy yondashuvlarni (korporativ erk-iroda avtonomiyasi nazariyasi (Adolf Berle, Gardiner Means, Henry Hansmann), cheklangan javobgarlik (javobgarlik va mas'uliyatni cheklash) nazariyasi (Jean Tirole, Renee Adams, T.V.Kashanina, D.M.Karaxodjayeva, O'P.Xolmirzayev), jamoat manfaatlari nazariyasi (David Chandler, B.William, Jr.Werther) fiksiya nazariyasi (F.Savini), jamoa nazariyasi (A.V.Venediktov, S.N.Bratus) yuridik shaxs konstruksiyasi nazariyasi (N.Imomov) va boshqa ko'plab nazariyalar) tahlil etadi hamda korporativ munosabatlar mohiyatini anglash borasida o'z nuqtayi nazarlarini umumlashtirgan holda **“integratsiyalashgan va moslashuvchan korporativ huquqiy munosabatlar”** nazariyasini ilgari suradi. Ushbu nazariyada korporativ huquqiy munosabatlar nafaqat alohida yuridik shaxslar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar, balki keng fuqarolik huquqi tizimining o'zaro bog'liq elementlari sifatida ko'rib chiqiladi. U korporativ faoliyatni chuqurroq tushunish va samarali tartibga solish uchun fuqarolik huquqi tamoyillarini korporativ huquq sohasida qo'llashni nazarda tutadi.

Fuqarolik huquqining bunyodkorlik funksiyasi adolatli fuqarolik jamiyati uchun moslashish va innovatsiya g'oyalarini keng joriy etishga asoslanadi. Fuqarolik huquqining bunyodkorlik funksiyasi yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Bu takomillashtirilgan tartib-qoidalar, nizolarni hal qilishning muqobil mexanizmlarini yaratish, yangi innovatsiya va texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq. Ushbu funksiya ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda fuqarolik-huquqiy mexanizmlardan ya'ni shartnoma konstruksiyalari

vositasida yangi moddiy va nomoddiy obyektlarni yaratish, ma'muriy buyruqbozlik tizimidan farqli ravishda muqobili yo'q, bozor tizimiga mos, shartnoma vositalaridan unumli foydalanishga asoslanadi.

O'zbekistonda korporativ munosabatlarni fuqarolik-huquqiy asoslarini rivojlanish tendensiyalaridan biri raqamlashtirish va texnologik yangiliklarni joriy etish bilan bog'liq. Zero korporativ munosabatlarni fuqarolik-huquqiy asoslarini rivojlanish tendensiyalaridan biri sohada yuz berayotgan globallashtirish sharoitida moslashuvchan huquqiy asoslarni yaratishdir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Korporativ boshqaruvni amalga oshirishda ilmiy texnika taraqqiyoti yutuqlari - sun'iy intellektdan samarali foydalanish zaruriyati va ahamiyati”**ga bag'ishlangan. Unda korporativ boshqaruv organlari faoliyatini raqamlashtirishning fuqarolik-huquqiy ta'minlash muammolari hamda sun'iy intellektni korporativ boshqaruvda qo'llash tushunchasi, ahamiyati, genezisi va boshqaruvni raqamlashtirish jarayoniga ta'siri o'rganilgan. Bundan tashqari, ushbu bobda sun'iy intellektni korporativ boshqaruvga joriy etishda huquq subyektiligi va ularning huquqiy maqomini belgilash, korporativ boshqaruvda sun'iy intellekt dasturiy ta'minoti va u tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning xususiyatlari, korporativ boshqaruvda sun'iy intellektdan foydalanishning fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalalari tadqiq qilingan.

Korporativ boshqaruv munosabatlarini raqamlashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. U ko'plab boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, kundalik boshqaruv ishlariga sarflanadigan vaqtni nazorat qilish va qisqartirish, eng asosiysi samaradorlikni oshirishga imkon beradi. Huquqiy normalar elektron hujjat va elektron imzolarning tan olinishi, ularning asosli va ishonchliligini ta'minlash uchun foydalanish talablarini belgilashi zarur. AKT korporativ boshqaruv uchun qulaylik yaratishga xizmat qiladi va ish samaradorligini oshiradi.

Korporativ boshqaruvni amalga oshirishda axborot siyosatini to'g'ri yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada raqamlashtirishning o'rni beqiyos. To'g'ri yo'lga qo'yilgan axborot siyosati aksiyadorlik munosabat ishtirokchilarining kompaniya bilan o'zaro ishonchni mustahkamlash, investitsiya jozibadorligini oshirish, nizolarni oldini olish uchun ham muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda ayrim kompaniyalarning (“O'zkimyosanoat” AK, “O'zagrosug'urta” AK, “Euroasia insurance” AJ va boshqalar) Axborot siyosati to'g'risidagi nizomlar tahlil qilinib, u korporativ axborotlarni oshkor qilish manfaatlar to'qnashuvini minimallashtirishi tadqiq qilindi. O'zaro muloqot va axborot olishning tez, samarali imkoniyatlaridan foydalanishda raqamlashtirish biznes uchun juda muhimdir.

Korporativ boshqaruvda sun'iy intellektni qo'llashning samaradorligi, sohaga zamonaviy AKT va innovatsiyalarni joriy etishni taklif etsa-da, biroq unda axloqiy va boshqaruv madaniyati, inson va dasturiy ta'minot boshqaruvidagi axloqiy integratsiya boshqaruvdagi tavakkalchilikka muvozanatli yondashuvni talab etadi. Agar sun'iy intellekt joriy etiladigan bo'lsa, u axborotlarni tahlil qilgan holda tez qaror qabul qilish imkoniyati bilan boshqaruvga ta'sir ko'rsatadi.

Korporativ sun'iy intellekt imkoniyatlarini haqiqatda ro'yobga chiqarish uchun uni oddiy avtomatlashtirilgan dastur emas, hamkor sifatida ko'rish kerak. sun'iy intellekt va inson boshqaruvi integratsiyasi gibridd korporativ boshqaruv

siyosatini yuzaga keltiradi. Dissertant inson va sun'iy intellekt hamkorligidagi gibril korporativ boshqaruv doktrinasini ishlab chiqadi. U inson hamda sun'iy intellekt boshqaruv tizimlarining ijobiy imkoniyatlari va afzalliklarini birlashtiradigan innovatsion yondashuv sifatida tavsiflaydi. Gibril korporativ boshqaruvining asosiy jihatlari vazifalarni taqsimlash, yakdil qaror, qaror qabul qilishda har qanday xulosani hurmat qilish, "qaror qabul qilishda yuzaga kelgan kolliziya bo'yicha so'nggi qarorni inson qabul qilishi shartligi" bilan bog'liq bo'ladi.

Dissertant sun'iy intellekt subyektliligi masalasini (P.M.Asaro, S.Bozarov, Ye.V.Kupchina) muhokama etib, ushbu davrni "ikkilanishlar davri" deb hisoblaydi. Chunki sun'iy intellekt haqidagi tasavvurlar bu borada munosabat bildirishda ehtiyotkorlikni talab etmoqda. Muallif sun'iy intellektni to'laqonli huquq subyekti maqomiga ega bo'lmagan kvazisubjekt sifatida tan olishni taklif etadi va uni fuqarolik-huquqiy munosabat doirasida "subjekt" sifatida e'tirof etish uchun ayrim unsurlar mavjudligini ta'kidlaydi. Ayrim korporativ munosabat subyektlari faoliyatiga qo'llash orqali sun'iy intellektda ayrim subyektlilik elementlarini uchratish ehtimoli borligi ishda asoslantirib beriladi.

Huquqiy munosabatlarda sun'iy intellekt kvazisubjekt sifatida ishtiroki mohiyatan korporativ boshqaruvda boshqa subyektlarning raqamli vakili (**Procurator intellectus artificialis corporativi** (PIAC)), ko'makchi, yordamchi, hamkor, assistent (**Adiutor Artificialis Gubernationis Corporativae** (AAGC)) hamda avtonom, mustaqil, to'liq huquqli ishtirokchi (**Membrum Artificiale Autonomum Corporativum** (MAAC)) maqomida namoyon bo'ladi.

sun'iy intellektni korporativ boshqaruvda ishtiroki doirasida raqamli aksiyador, kuzatuv kengashining raqamli vakili, kuzatuv kengashining mustaqil avtonom a'zosi, davlat raqamli aksiyadori, ijroiya organ faoliyatida sun'iy intellekt vakilligi, korporativ maslahatchi sifatidagi mohiyati ochib beriladi.

Kompaniyalar ehtiyoj va strategik maqsadlariga qarab sun'iy intellekt dasturiy texnik shartlariga o'z g'oyalarni singdirishi mumkin. Bundan tashqari, biznes funksiyalarini avtomatlashtirish yangilangan usullar va xizmat ko'rsatish darajasidagi kelishuvlarni talab qiladi. sun'iy intellekt korporativ boshqaruv subyektlari buyurtmasiga asosan tayyorlangan hamda korporativ subyektlar ishtirok etmagan, uchinchi shaxslar tavsiyasiga yoki standartlar asosida tayyorlangan dasturiy ta'minotlarga asosan joriy etiladi. Tadqiqot ishida bu turkumdagi dasturiy ta'minotlarning turlarining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Korporativ boshqaruv sohasidagi manipulyatsiya kompaniyaning barqarorligi va obro'siga jiddiy tahdid soladi. Dissertantning fikricha zamonaviy korporativ munosabatlarda ishtirokchilar tomonidan manipulyatsiya o'yinlari hamda turli manfaatdor shaxslarning korporativ guruhlariga birlashishiga qarshi sun'iy intellekt dasturiy ta'minoti qo'llash samarali vosita hisoblanadi. Biroq buyurtma beruvchi shaxs dasturiy ta'minotga o'z manfaatini ko'zlab texnik shartlarni kiritish, tizimning ishlashini o'zgartirishga erishish orqali sun'iy intellekt boshqaruvini ham manipulyatsiyaga moslashtirishi mumkin.

Manipulyatsiyani oldini olish uchun qat'iy nazorat mexanizmlarini joriy etish, shaffoflikni oshirish va korporativ madaniyatni mustahkamlash zarur. Xatarlarni samarali boshqarish va muntazam tekshiruvlar potensial tahdidlarni aniqlash va

korporativ munosabatlarning barcha ishtirokchilarining manfaatlarini himoya qilishga yordam beradi.

Korporativ sun'iy intellekt tomonidan qabul qilingan qarorlarning yuridik kuchi uning subyektilik maqomiga ham ta'sir etadi. Agar sun'iy intellekt qarori yuridik kuchga ega bo'lsa, u boshqa korporativ subyektlar bilan bir xil maqomga ega bo'ladi. sun'iy intellekt tomonidan qabul qilinishi mumkin bo'lgan qarorlar strategik, ustuvor yo'nalishlarni belgilashga qaratilgan, joriy, moliyaviy, inson resurslarini boshqarish huquqiy qarorlar bilan bog'liq bo'ladi.

Dissertant korporativ munosabatlarni fuqarolik huquqi predmeti tarkibiga kiritish rakursida fuqarolik-huquqiy javobgarlikning yangi turi shakllanishini ta'kidlaydi. Kompaniya manfaatlariga zid qarorlar qabul qilish, moliyaviy zarar yetkazuvchi harakatlar, vakolat va huquqlarni suiiste'mol qilish, o'z korporativ majburiyatlarini bajarmaslik, kompaniya faoliyatiga to'sqinlik qilish bilan bog'liq holatlarda korporativ fuqarolik-huquqiy javobgarlik yuzaga keladi. U nafaqat qonun hujjatlari yoki shartnomaga zid harakatlar, balki korporativ hujjatlar talablarini buzganlik oqibatida ham vujudga keladi. Korporativ boshqaruvda sun'iy intellektdan foydalanish bilan bog'liq fuqarolik-huquqiy javobgarlikning bir nechta muhim masalalarga e'tibor qaratish talab etiladi. sun'iy intellekt harakatlari (qarorlari) uchun javobgarlikning gibriddan modellari (Goodman, B., Flaxman, S. Gürkaynak, G., Yilmaz, I., Haksever, G.) o'rniga sun'iy intellektning foydalanish xususiyatlariga mos modellarni yaratishga e'tibor qaratish lozim.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Korporativ boshqaruvda sun'iy intellektdan foydalanish yuzasidan zamonaviy ilmiy yondashuvlar”** deb nomlanadi. Unda sun'iy intellektdan korporativ boshqaruvda foydalanishga bag'ishlangan ilmiy qarashlarning huquqiy tahlili, aksiyadorlar va boshqa manfaatdor shaxslarga ta'sirini huquqiy baholash metodologiyasi, fuqarolik huquqining fundamental tamoyillari doirasida sun'iy intellektni qo'llash masalalari tadqiq qilingan. Korporativ tanglik (Dead-lock) vaziyatidan chiqishda sun'iy intellektdan foydalanishning ahamiyati ham ushbu bobda ochib berilgan.

Korporativ boshqaruv huquqi bilan bog'liq qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini rivojlantirish uchun asos bo'lgan bir nechta doktrinalari mavjud. O'zbekistonda S.Gulyamov, M.Vohidov, M.D.Kotova, O'.Xolmirzayev, A.Jumag'ulov va boshqalar qator ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirgan. Tadqiqot ishida korporativ boshqaruvning huquqiy jihatlariga bag'ishlangan “korporativ javobgarlik doktrinasini” (Archie Carroll, Magdalena Rojek-Nowosielska), “aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish doktrinasini” (Adolf Berle, Gardiner Means), “qonuniylik va axloqiy me'yorlar doktrinasini” (John Stuart Mill, Michael C. Jensen), “boshqaruv vakolati doktrinasini” (Peter Drucker), “direktor majburiyatlari doktrinasini” (William Meade Fletcher), agentlik nazariyasi (Michael C. Jensen, William H. Meckling) kabi ko'plab doktrina, klassik va zamonaviy yondashuvlar muhokama qilinadi.

Bundan tashqari zamonaviy korporativ huquqda boshqaruv bilan bevosita bog'liq ishtirokchi nazariyasi (shareholder theory), agentlik nazariyasi (agency theory), manfaatdor shaxs nazariyasi (stakeholder theory), ijtimoiy mas'uliyat nazariyasi (social responsibility theory), ishtirokchi (aksiyador)ga yo'naltirilgan

(shareholder oriented), ishchi kuchiga yo'naltirilgan (labour oriented) va davlat ishtirokiga yo'naltirilgan (state oriented) kabi bir qator modellarni tahlil etadi. Dissertantning fikricha sun'iy intellekt asosidagi korporativ boshqaruvga aloqador ilmiy qarashlar asosan sun'iy intellektidan foydalanishning potensial afzalliklarini ochib berish, boshqaruv qarorlarining samaradorligi va sifatini, korporativ madaniyatni oshirish, xatarlarni kamaytirish, biznes jarayonlarini optimallashtirish, oshkoralik, yangi biznes modellarini yaratish, kiberxavfsizlik va kiber tahdid yo'nalishlarida amalga oshirilmoqda.

Dissertant sun'iy intellektning xususiy ishlarga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'yilmaslik tamoyili doirasida qo'llanilishiga e'tibor qaratadi va uning kompaniya yoki mulkdor erk-irodasi asosida joriy etilishi fuqarolik huquqining fundamental tamoyillariga zid emas deb hisoblaydi.

Blokcheyn, internet ashyolar (IoT), raqamli egizaklar va hisoblash qonunlari kabi jadal rivojlanayotgan texnologiyalar kelajakdagi korporativ sun'iy intellekt tizimlari huquqiy rejimi uchun ahamiyatlidir. Ushbu texnologiyalarning huquqiy, axloqiy va ijtimoiy oqibatlarini anglash zamonaviy voqelikka moslashish imkonini beradi. Ushbu ilg'or texnika yutug'idan foydalanadigan kompaniya an'anaviy boshqaruvga qaraganda, istiqbolli sun'iy intellekt imkoniyatiga qiziqishi shubhasiz.

Korporativ tanglik ("Dead-lock hodisasi") masalasi korporativ boshqaruvda muhim ahamiyat kasb etadi. U kompaniya faoliyati va rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan vaziyat bo'lib, buning oqibati kompaniya tugatilishi ham mumkin. Dissertant "texas otishmasi", "golland auksioni", "rus ruletkasi", "kamin oldidagi suhbat" "aksiyadorlarning korporativ nizosi" (Frank H. Easterbrook, Daniel R. Fischel) "boshqaruvdagi berk doira" (Allen William T), "agentlik nizolari" (S.Michael, A.Jensen), kabi nazariyalarni tahlil etadi. Shu asosda sun'iy intellekt dasturiy ta'minotini "vositachi" sifatida qo'llashga qaratilgan **"Korporativ sun'iy intellekt vositachiligi" nazariyasi** (Artificial Intelligence Corporate Mediation Theory)ni taklif etadi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **"Korporativ boshqaruvda sun'iy intellektidan foydalanishni huquqiy tartibga solish va uni takomillashtirish muammolari"** deb nomlanib, unda O'zbekistonda sun'iy intellekt boshqaruvining huquqiy asoslari va axloqiy qoidalarni joriy etish konsepsiyasining ishlab chiqish muammolari, sun'iy intellekt qo'llanilgan kompaniyalar qabul qiladigan korporativ boshqaruv kodeksining ustuvor yo'nalishlarini belgilash muammolari, korporativ boshqaruvga sun'iy intellektni joriy etish istiqbollari ochib berilgan.

Raqamli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida sun'iy intellektni korporativ boshqaruvga joriy etish uchun tegishli qonunchilik bazasi va korporativ axloqiy me'yorlar talab qilinadi. Ushbu jarayon milliy xususiyatlar va xalqaro standartlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

O'zbekiston korporativ sun'iy intellektni qo'llashda shaxsiy erkinliklarga qarshi qoidalarni, milliy an'analarga zid sun'iy intellekt tizimlarini inkor etishi lozim. Korporativ sun'iy intellektni joriy etishda mas'uliyat, javobgarlikni o'z zimmasiga olish, doimiy hamkorlik, ishonch va ijtimoiy maqsadlarning milliy qadriyatlarga mosligiga erishish muhim. O'zbekistonda sun'iy intellekt boshqaruvining huquqiy asoslari va axloqiy qoidalarni joriy etish konsepsiyasini

ishlab chiqishda IEEE standartlari, OECD korporativ boshqaruv tamoyillari, BMTning biznes va inson huquqlari bo'yicha yetakchi tamoyillarini inobatga olib, milliy manfaatlariga mos qoidalarini asos qilish maqsadga muvofiq.

Korporativ boshqaruv kodeksi kompaniya faoliyatini, uning ishtirokchilari o'rtasidagi va uchinchi shaxslar bilan o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar va tamoyillar to'plami hisoblanadi. U odatda korporativ axloqiy me'yorlar, boshqaruv, ishbilarmonlik etikasi qoidalari ni qamrab oladi. U axloq standartlarni belgilaydi, korporativ nizolarning oldini olishga yordam ham beradi. Korporativ boshqaruv kodeksi me'yorlari kompaniya ichki huquqiy siyosati va standartlarini belgilab beradi. Aynan shu orqali kompaniyaning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadigan ijobiy korporativ madaniyatni shakllantiradi va qo'llab-quvvatlaydi. Mazkur kodeks sun'iy intellekt, korporativ axloq va boshqaruv sohalaridan eng yaxshi amaliyotlarni mujassamlashtiradi. Shu bilan birga dastlabki sun'iy intellekt qo'llanilgan davrda texnik va tashkiliy muammolarni bartaraf etadi.

Fuqarolik qonunchiligi qabul qilinayotganda yoki o'zgartirilayotganda "jamoatchilik ekspertizasi"ni yo'lga qo'yish zarur. Aynan bu idoraviy manfaatni tiyib turish imkonini beradi. Bundan tashqari, O'zbekistonda sohaga oid fuqarolik qonunchiligida uch pog'onali tartibga solish amaliyotidan voz kechish maqsadga muvofiq. Muallifning fikricha, fuqarolik qonunchiligini inventarizatsiyadan o'tkazib, ularni zaruriy va nozaruriy normativlarga ajratish va imkon qadar fuqarolik qonunchiligida ikki pog'onali tartibga solish tizimini joriy etish zarur.

XULOSA

Korporativ sun'iy intellektni fuqarolik-huquqiy tartibga solish masalasini tadqiq etish jarayonida quyidagi ilmiy-nazariy xulosa, takliflar ishlab chiqildi.

I. Ilmiy-nazariy xulosalar

1. Dissertant tomonidan fuqarolik huquqining tartibga solish predmeti doirasiga korporativ munosabatlarni kiritish masalasini tahlil etgan holda, an'anaviy fuqarolik huquqi funksiyalaridan (tartibga solish, tarbiyaviy, qo'riqlash) farq qiladigan, innovatsiya va biznes boshqaruvini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratishda ahamiyatli bo'lgan yangi – bunyodkorlik funksiyasi taklif etiladi.

Fuqarolik huquqining bunyodkorlik funksiyasi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda bozor tizimiga xos, fuqarolik-huquqiy mexanizmlar ya'ni shartnoma konstruksiyalari vositasida yangi moddiy va nomoddiy obyektlarni yaratish, ma'muriy buyruqbozlik xos bo'lmagan – muqobili yo'q shartnomalardan unumli foydalanish, jamiyatdagi o'zgarishlarga moslashuvchan, fuqarolik-huquqiy institutlarni modernizatsiya qilish, innovatsiya va zamonaviy texnologiyalarni rag'batlantirish, davlat-jamiyat-shaxs o'rtasidagi faol hamkorlikni yo'lga qo'yish, shuningdek samarali huquqiy muhitni yaratishga yordam beradi. Mazkur funksiya korporativ boshqaruvda integratsiya va samarali biznesni qo'llab-quvvatlaydi.

2. Dissertant tomonidan korporativ boshqaruvga qo'llanilgan sun'iy intellektga doktrinal ta'rif taklif etiladi: korporativ boshqaruvga joriy etilgan sun'iy intellekt bu – korporativ raqamlashtirishning innovatsion bosqichi sifatida, qaror qabul qilish, tahlil qilish va bashorat jarayonlarini optimallashtirish,

avtomatlashtirish, korporativ qarorlarni qo'llab-quvvatlash uchun kompaniya faoliyatini boshqarishda korporativ tuzilmalarga qo'llaniladigan "aqlli" dasturiy ta'minot majmuidir. U boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish imkonini beruvchi ilg'or texnologiya hisoblanadi. Sun'iy intellektning asosiy xususiyati mas'uliyat, shaffoflik, ma'lumotlar maxfiyligi, turli toifadagi korporativ qarorlar qabul qilish imkoniyatiga egaligi hamda inson va texnologiya hamkorligi bilan bog'liq.

3. Tadqiqot ishida korporativ boshqaruvga sun'iy intellektni joriy qilinishi ishtirokchilarning xususiy ishlariga o'zboshimchalik bilan aralashuv sifatida baholanish ehtimoli tahlil etiladi. Muallifning fikriga ko'ra, kompaniya umumiy yig'ilishining ko'pchilik (malakali ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilingan qaror yoki davlat kompaniyalarida korporativ ishtirokchilar roziligidan qat'iy nazar, mulkdor erki doirasida qabul qilingan Hukumat qarori boshqaruvda sun'iy intellektni qo'llash uchun huquqiy asos hisoblanadi. Sun'iy intellektni joriy etishdagi ushbu omillar korporativ ishtirokchilar erki doirasida, **fuqarolik huquqining fundamental tamoyillariga zid bo'lmagan holda** yuz bergan deb hisoblash imkonini beradi.

4. Dissertant korporativ tanglik usul va nazariyalarini (texas otishmasi, golland auksioni, rus ruletkasi, kamin oldidagi suhbat, aksiyadorlar korporativ nizosi nazariyasi, boshqaruvdagi berk doira nazariyasi, ko'pchilikning ozchilikka bosimi nazariyasi va boshqalar) tahlil etgan holda sun'iy intellekt dasturiy ta'minotini korporativ tanglik vaziyatlarida yuzaga kelgan muammolarni hal qilishda "vositachi" sifatida qo'llashga asoslangan – **"korporativ sun'iy intellekt vositachiligi" nazariyasi** (Artificial Intelligence Corporate Mediation Theory) taklif etiladi. Unga ko'ra korporativ tanglikka sabab bo'lgan aksiyadorlarning o'zaro nizolarini, boshqaruv organlari bilan paydo bo'lgan kelishmovchiliklarini bartaraf etishda sun'iy intellektni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Sun'iy intellekt manfaatdor bo'lmagan holda mediativ kelishuv yoki ichki va tashqi omillarni tahlil etgan holda tanglikdan chiqish borasidagi qaror loyihalarini taklif etishi mumkin. Sun'iy intellektning vositachiligida subyektivlik va insonga xos hissiyotlar minimallasadi. Taraflarning vajlariga obyektiv baho bergan holda samarali, ishonchli va istiqbolli qaror taklif etadi. Yuqoridagi ijobiy jihatlari bilan korporativ tanglikdan chiqishning barcha modellarida qo'llash mumkin bo'ladi.

5. Dissertantning fikricha, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda sun'iy intellektni korporativ boshqaruv jarayonida kvazisubjekt sifatida ishtiroki quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- **Procurator intellectus artificialis corporativi - PIAC** (lot. ma'nosi korporativ sun'iy intellekt vakili) – korporativ boshqaruvda sun'iy intellekt boshqa subyektlarning **raqamli vakili sifatida** ishtirok etadi hamda uning vazifasi va majburiyatlari dasturiy ta'minot shartlariga kiritiladi;

- **Adiutor Artificialis Gubernationis Corporativae – AAGC** (lot. ma'nosi korporativ boshqaruvning sun'iy ko'makchisi) – sun'iy intellekt boshqa subyektlarga **ko'makchi, yordamchi, hamkor, assistent** sifatida korporativ boshqaruvda ishtirok etadi. Uning korporativ boshqaruv jarayonlarida yordamchi sifatidagi funksiyasi va vazifalari dasturiy ta'minot shartlariga kiritiladi;

- **Membrum Artificiale Autonomum Corporativum - MAAC** (lot. ma'nosi korporativ avtonom sun'iy a'zo) – sun'iy intellekt korporativ boshqaruvda **avtonom, mustaqil, to'liq huquqli ishtirokchi** sifatida qatnashadi.

Sun'iy intellektning korporativ boshqaruvda ko'makchi, hamkor, vakil va alohida avtonom rejimda faoliyati bilan bog'liq funksiyalarining mazmun-mohiyati tadqiqot ishida ochib berildi.

6. Dissertant sun'iy intellektni hozirgi bosqichda to'laonli fuqarolik-huquqi subyekt sifatida e'tirof etishga to'sqinlik qiluvchi quyidagi unsurlarini alohida ajratib ko'rsatadi:

- garchi sun'iy intellekt huquq subyektiga xos ayrim belgilarga ega bo'lsa-da, rasmiy yoki nazariy jihatdan to'laonli subyekt sifatida tan olinmagan;

- sun'iy intellektning huquqiy layoqati (huquq va muomala layoqati)ning vujudga kelish va tugatilish masalasida klassik hamda zamonaviy sivilistikada yetarli huquqiy yechim mavjud emas;

- fuqarolik huquqiy munosabatda individual yoki jamoaviy ishtirok masalasidagi mavhumlik uning klassik subyektlar doirasidagi maqomini belgilashga to'sqinlik qiladi;

- boshqa huquq subyektlaridan farqli ravishda sun'iy intellektda o'z huquqiy irodasini ichki va tashqi tomondan ifoda etish qobiliyati, manfaatdorlik, harakat uchun aybdorlik, yuridik javobgarlikni o'z zimmasiga olish kabi elementlar to'laonli namoyon bo'lmaydi;

7. Tadqiqotchi tomonidan an'anaviy aksiyadorning vakili hisoblangan **“raqamli aksiyador”** tushunchasini taklif etiladi: raqamli aksiyador – zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli platformalardan foydalangan holda kompaniya faoliyatida ishtirok etuvchi, real aksiyadorning sun'iy intellekt joriy qilingan an'anaviy – “ishonchli vakili” bo'lib, u “sun'iy ong” yordamida aksiyalarni boshqarish, aksiyadorlar umumiy yig'ilishlarida ishtirok etish, ovoz berish, kompaniya faoliyati haqidagi ma'lumotlarni olish, ularni real vaqt rejimida tahlil qilish, innovatsion texnologiyalar yordamida aksiyadorlik huquqlarini amalga oshirish, dasturiy ta'minotiga kiritilgan texnik shartlar doirasida yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib, obyektiv, manfaatlar to'qnashuvisiz korporativ qarorlarni qabul qilish, boshqaruvda virtual muloqotni amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan sun'iy intellekt dasturiy ta'minotidir.

Raqamli aksiyador sun'iy intellekt yordamida aksiyalarga egalik qilishi, foydalanishi, qaror qabul qilish uchun katta miqdordagi ma'lumotlarni tahlil qilishi, korporativ masalalar bo'yicha ovoz berishi, boshqaruv yig'ilishlarida ishtirok etish va muhokamalarida qatnashishga qodir avtonom raqamli ishtirokchi maqomiga ega bo'lishi mumkin.

8. Muallif kompaniya kuzatuv kengashining mohiyatidan kelib chiqib, uning faoliyatiga sun'iy intellektni qo'llashda “raqamli vakil” instituti ijobiy natija beradi, degan xulosaga keladi;

9. Dissertant tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi PF-28-son Farmoni bilan tasdiqlangan Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini “Kuchli Kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim” tamoyili asosida tashkil etish yuzasidan qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha

Yo'l xaritasi ijrosini ta'minlash maqsadida davlat ishtirokidagi xo'jalik jamiyatlarida **sun'iy intellektni kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi sifatida qo'llash** taklif etiladi. Uning ijobiy jihatlari hisoblangan o'z-o'zini rivojlantira olishi, huquqiy va axloqiy mulohaza yuritishi, milliy va xalqaro korporativ va biznes standartlariga muvofiq mustaqil qaror qabul qilishi (avtonom harakat) tadqiqot ishida asoslantirilib berilgan.

10. Dissertant tomonidan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida raqamli transformatsiya qilish dasturi ijrosini ta'minlash maqsadida aksiyador-davlatning vakili sifatida **"davlat raqamli aksiyadori"** tushunchasi taklif etiladi: Davlat raqamli aksiyadori bu – ustav fondida davlat ulushi bo'lmagan yoki bu ulush 25 foizdan ortiq bo'lmagan mamlakat iqtisodiyotining ustuvor strategik tarmoqlarida faoliyat yurituvchi, shaharni tashkil etuvchi hamda oshirilgan xavf manbaiga ega bo'lgan (masalan, AES) kompaniyalar umumiy yig'ilishining yakdil ovozi bilan qabul qilingan taklifiga muvofiq, Hukumat qaroriga ko'ra kuzatuv kengash tarkibiga joriy etiladigan "sun'iy intellekt vakilligi" maqomiga ega korporativ dasturiy ta'minot hisoblanadi. U davlat ijtimoiy-iqtisodiy manfaati samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi korporativ qarorlarga "veto" qo'yish huquqiga ega bo'ladi.

11. Dissertantning fikricha korporativ boshqaruvda ijroiya organ faoliyatiga joriy etilgan sun'iy intellekt ijro organ boshqaruvini samarali tashkil etish va optimallashtirish, kompaniyaning moliyaviy, marketing va ichki xo'jaligini boshqarish, strategik rejalashtirish asosida avtonom qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lgan, qonunchilik, kompaniya ustavi va umumiy yig'ilish tomonidan belgilangan vakolatlar doirasida faoliyat yurituvchi dasturiy ta'minot hisoblanadi. Uning o'ziga xosligi sun'iy intellektning ko'makchi-hamkor va avtonomlik funksiyalarini qamrab olganligi bilan bog'liq.

12. Muallif zamonaviy korporativ munosabatlarida inson va sun'iy intellekt ishtirokidagi gibril korporativ boshqaruvning mohiyatini o'zida mujassamlagan quyidagi ilmiy tushunchani taklif etadi: *"insonlar va sun'iy intellekt o'rtasidagi gibril korporativ boshqaruv – bu kompaniyani korporativ boshqaruvida maqbul natijalarga erishish uchun inson hamda avtomatlashtirilgan aqlli sun'iy intellekt boshqaruv tizimlarining noyob imkoniyatlari va afzalliklarini birlashtirgan, boshqaruvga samarali, maqsadli va tizimli ta'sir etishga asoslangan huquqiy mexanizmdir"*.

Taklif etilayotgan gibril korporativ boshqaruvning asosiy jihatlari boshqaruvda vakolatlar taqsimoti, yakdil va moslashuvchan qabul qilishda har qanday xulosani hurmat qilish, qaror qabul qilishda yuzaga keladigan kolliziya bo'yicha "so'nggi qarorni inson qabul qilishi" bilan bog'liq. Ushbu korporativ boshqaruv modeli kompaniyaning samaradorligi, innovatsiya va raqobatbardoshligini oshirish uchun har ikki "boshqaruvchi"ning eng yaxshi xususiyatlarini birlashtiradi.

Muallif faoliyatiga sun'iy intellekt joriy etilgan ijroiya organning gibril boshqaruvida – strategik-muhim qaror qabul qilishda eng so'nggi qarorni inson qabul qilishi, umumiy masalalarda hamkorlik, tahlil va qaror loyihalarini ishlab

chiqishda sun'iy intellektga avtonomiya berish kabi vakolatlar taqsimotini taklif etadi.

13. Dissertant korporativ sun'iy intellekt dasturiy ta'minoti quyidagicha turkumlashni taklif etadi. Unga ko'ra:

- *korporativ boshqaruv subyektlari buyurtmasiga asosan tayyorlangan dasturiy ta'minot* (individual, xususiy dasturiy ta'minot sifatida faqat buyurtmachi-kompaniya faoliyatiga va manfaatlariga moslashtiriladi. U korporativ boshqaruv ehtiyojlariga aniq mos keladigan funksiyalarni o'zida mujassamlaydi. sun'iy intellekt boshqaruvi bilan bog'liq javobgarlik dasturiy ta'minoti buyurtmachi-kompaniya zimmasiga yuklatiladi);

- *korporativ boshqaruv standartlari asosida uchinchi shaxslar tavsiyasiga ko'ra tayyorlangan dasturiy ta'minot* (ommaviy foydalanuvchilar uchun yaratilgan dasturiy ta'minot bo'lib, istalgan kompaniya uni boshqaruvida joriy etishi mumkin. sun'iy intellekt boshqaruvi bilan bog'liq javobgarlik dasturchi-ishlab chiqaruvchi zimmasiga yuklatiladi).

14. Zamonaviy korporativ munosabatlarda ishtirokchilar tomonidan manipulyatsiya o'yinlari hamda turli manfaatdor shaxslarning korporativ guruhlariga birlashishiga qarshi sun'iy intellekt dasturiy ta'minoti qo'llash samarali vosita ekanligi asoslantirib berilgan. Dissertantning fikricha sun'iy intellekt dasturiy ta'minoti orqali korporativ boshqaruvni manipulyatsiya qilish ayrim ishtirokchilar yoki guruhlar manfaatini ko'zlab, sun'iy intellekt dasturiy ta'minoti ishlab chiqishdan iborat bo'ladi. Bunda buyurtma beruvchi shaxs dasturiy ta'minotga o'z manfaatini ko'zlab texnik shartlarni kiritish, tizimning ishlashini o'zgartirishga erishadi. Bu holatda sun'iy intellekt manipulyator manfaatini ko'zlab, aksiyador va boshqa korporativ boshqaruv subyektlari huquqlarini cheklovchi qarorlar qabul qilishi mumkin. sun'iy intellekt dasturiy ta'minotidagi manipulyatsiyani oldini olish uchun qat'iy monitoring mexanizmlarini joriy etish, shaffoflikni oshirish va korporativ madaniyatni mustahkamlash maqsadga muvofiq.

15. Tadqiqotchi kompaniya boshqaruviga joriy etilgan sun'iy intellekt qabul qiladigan qarorlarning yuridik kuchi, darajasi, tan olish imkoniyati va taalluqliligidan kelib chiqib, strategik qaror, ustuvor yo'nalishlarni belgilashga qaratilgan qaror, joriy qaror, moliyaviy (investitsiyaviy) qaror, inson resurslarini boshqarish bilan bog'liq qaror va huquqiy qarorlar tarzida turkumlashni taklif etadi hamda ularning mazmun mohiyatini ochib beradi.

16. Muallif fuqarolik huquqi predmeti doirasida korporativ (tashkiliy-huquqiy) munosabatlar bilan bog'liq fuqarolik-huquqiy noqulayliklar – sanksiyalarni (ishtirokchini jamiyatdan chiqarish, ulush nisbatini o'zgartirish imkoniyatini cheklash, majburiyat (*dividendlar to'lash, axborotlarni oshkor qilish, auditorlik tekshiruvini o'tkazish*) yuklash, affillangan shaxslarga aloqador bitimlar to'g'risidagi axborotlarni oshkor etishga majburlash) kabi qamrab oladigan **korporativ javobgarlikni** fuqarolik-huquqiy javobgarlikning **yangi turi sifatida** taklif etadi. Ushbu javobgarlik kompaniya manfaatlariga zid qaror qabul qilish, vakolatlarni suiiste'mol qilish, korporativ majburiyatlarni bajarmaslik, kompaniya faoliyatiga to'sqinlik qilish kabi holatlarda yuzaga keladi. Korporativ javobgarlik qonun hujjatlari hamda kompaniyaning korporativ hujjatlari talablarini buzganlik

oqibatida ishtirokchilarning manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

17. Dissertant tomonidan korporativ-huquqiy munosabatda **“integratsiyalashgan va moslashuvchan korporativ huquqiy munosabatlar”** nazariyasini ilgari suriladi. Ushbu nazariyaga ko‘ra korporativ huquq murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy holatdir. U xususiy-huquq sohalaridagi huquqiy munosabatlarning o‘zaro bog‘liq va birlashgan tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Korporativ huquq biznes muhitning o‘zgarishi, raqamlashtirishning ta’siri, ijtimoiy mas’uliyat, transchegaraviy aloqalarga bog‘liq holda rivojlanadi hamda turli korporativ tuzilmalar va biznes modellari moslasha oladi. Mazkur nazariya asosida korporativ munosabat subyektlari faoliyatida samaradorlik va investitsiyaviy jozibadorlik ortadi. Taklif etilayotgan nazariya doirasida korporativ boshqaruv munosabatlaridagi murakkabliklar milliy va xalqaro normalar asosida uyg‘unlashadi hamda aralash korporativ boshqaruv modeli doirasida samarali huquqiy tizimni yaratishda yangicha yondashuv hisoblanadi.

18. Tadqiqotchi affillangan shaxslar doirasini aniqlashdagi murakkabliklar, ular haqida ma’lumotlarni shaxsga doir ma’lumotlar muhofazasini ta’minlagan holda oshkor qilish, aloqador shaxslar tuzadigan bitimlarni tahlil qilishda sun’iy intellekt dasturiy ta’minotini qo‘llashning afzalliklari va samaradorligini asoslantirib beradi.

19. Muallifning fikricha, korporativ boshqaruvga joriy etilgan sun’iy intellekt va sohani raqamlashtirish maqsadida qo‘llaniladigan zamonaviy texnik vositalarni farqlash lozim. Texnik vositalar korporativ boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda qulaylik yaratishga xizmat qiladigan, samarali faoliyatni amalga oshirishga ko‘maklashadigan texnologiyalar (qurilmalar, apparatlar, odatiy dasturlar) majmuidir. Ulardan foydalanuvchi xodim xato va nuqsonlar bilan bog‘liq huquqiy oqibatlar uchun mas’uliyat va javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi. sun’iy intellekt esa korporativ boshqaruvga joriy etiladigan “aqlii algoritm” – dasturiy ta’minot hisoblanadi.

II. Amaldagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar:

1. FKning 2-moddasi 1-qismini quyidagi tahrirda bayon etilishi lozim:

“Fuqarolik qonunchiligi fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan huquqlarning vujudga kelish asoslarini hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilaydi, shartnoma majburiyatlari va o‘zga majburiyatlarni, shuningdek boshqa mulkiy hamda u bilan bog‘liq shaxsiy nomulkiy munosabatlarni (fuqarolik-huquqiy munosabatlarni) tartibga soladi. **Fuqarolik qonun hujjatlari shuningdek, yuridik shaxslarning tashkil etilishi, boshqarilishi, faoliyat yuritishi va tugatilishi bilan bog‘liq korporativ munosabatlarni ham tartibga soladi**”.

2. FKning 48-moddasi quyidagi mazmundagi yettinchi qism bilan to‘ldirilishi maqsadga muvofiq:

“yuridik shaxs manfaatlariga zid qarorlar qabul qilish, vakolatlarni suiiste’mol qilish, korporativ majburiyatlarni bajarmaslik, yuridik shaxs faoliyatiga to‘sqinlik qilish, qonun hujjatlari, ta’sis hujjatlari va ichki hujjatlar talablarini buzish holatlarida korporativ javobgarlik yuzaga keladi. Korporativ javobgarlik choralarini

qo'llash tartibi va shartlari qonun hujjatlari, ta'sis hujjatlari va yuridik shaxsning ichki hujjatlari bilan belgilanadi".

3. FKning 58-moddasiga quyidagi mazmundagi o'n ikkinchi bandni qo'shish maqsadga muvofiq:

"Jamiyat aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlariga ega bo'lishi mumkin".

Ushbu norma orqali shu'ba va qaram jamiyatlarni umumiy tartibini belgilash, FKning 67 va 68-moddalarini kodeksdan chiqarib, maxsus qonunlarda tartibga solish orqali normalarni optimallashtirish mumkin.

4. FKda dastur va ma'lumotlar bazasi intellektual mulk va mualliflik huquqi obyekti ekanligi qayd etilgan bo'lsa-da (FKning 1031, 1042, 1059-moddalari), u bilan bog'liq birorta modda mavjud emas. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi talablari doirasida, takrorlanishlarni bartaraf etish maqsadida, FKning 1031-moddasida EHM uchun dastur va ma'lumotlar bazasini faqat obyekt ekanlik masalasiga to'xtalib, huquqiy tartibga solish masalasi to'liq maxsus qonunlarda o'z ifodasini topishi maqsadga muvofiq.

5. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 58-moddasi quyidagi mazmundagi sakkizinchi qism bilan to'ldirilishi maqsadga muvofiq:

"Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'tkazilgan taqdirda aksiyadorlar uchun prezidium a'zolari, ijroiya organi a'zolari, sanoq komissiyasi, umumiy yig'ilish kotibining ma'ruzalarini onlayn audio va (yoki) video translyatsiyasi orqali kuzatish imkoniyati yaratilishi lozim.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali va bevosita ishtirok etayotgan aksiyadorlarga kun tartibidagi masalalar yuzasidan muhokamada ishtirok etishga teng sharoitlar yaratiladi".

6. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 62-moddasi quyidagi mazmundagi qo'shimchalar bilan to'ldirilishi maqsadga muvofiq:

"Umumiy yig'ilish masofadan turib, onlayn o'tkazilgan taqdirda umumiy yig'ilish kun tartibi, tarqatma materiallar va ovoz berish byulleteni yig'ilish o'tkazish operatorining qaysi elektron platformasida joylashtirilishi haqidagi ma'lumotlar e'lon matnida bo'lishi shart. Aksiyadorlarga berilishi lozim bo'lgan axborotdan (materiallardan) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etadigan shaxslar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilguniga qadar va uni o'tkazish vaqtida foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak".

7. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 73-moddasi quyidagi mazmundagi 3-band bilan to'ldirilishi maqsadga muvofiq:

"Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi onlayn rejimda masofadan turib o'tkazilgan taqdirda barcha onlayn ishtirokchilarning yig'ilishda to'laqonli ishtiroki ta'minlab berilishi shart. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi onlayn rejimda masofadan turib o'tkazilgan taqdirda majlis bayonnomasida ushbu moddaning ikkinchi qismida

nazarda tutilganlardan tashqari yig'ilish internet orqali onlayn rejimda, masofadan turib o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumot bo'lishi lozim".

8. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasi to'qqizinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilishi lozim:

"Jamiyat u bilan aloqa amalga oshiriladigan pochta manziliga va elektron pochta manziliga ega bo'lishi lozim. Jamiyat o'zining joylashgan yeri (pochta manzili) va elektron pochta manzili o'zgarganligi to'g'risida yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarni (bundan buyon matnda ro'yxatdan o'tkazuvchi organ deb yuritiladi) yozma bildirish yuborish yo'li bilan, aksiyadorlarni esa, ommaviy axborot vositalarida, **korporativ axborot yagona portali hamda jamiyatning rasmiy veb-saytida** e'lon berish yo'li bilan xabardor etishi shart".

9. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 36-moddasi birinchi qismi quyidagicha tahrirda bayon etilishi zarur:

"Jamiyat aksiyalarning yoki aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran o'n kun ichida ommaviy axborot vositalarida, **korporativ axborot yagona portali hamda jamiyatning rasmiy veb-saytida** e'lon qilish orqali o'zining imtiyozli huquqqa ega bo'lgan aksiyadorlariga aksiyalarni yoki aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni mazkur aksiyadorlarda mavjud bo'lgan aksiyalar soniga mutanosib ravishda teng shartlarda, qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilgan jamiyatning boshqaruv organi tomonidan belgilangan joylashtirish narxi bo'yicha olishni taklif etishi shart".

10. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 99-moddasi birinchi qismi quyidagicha tahrirda bayon etilishi lozim:

"Tugatuvchi jamiyatning tugatilishi (shu jumladan ixtiyoriy ravishda tugatish) haqida ommaviy axborot vositalarida, **korporativ axborot yagona portali hamda jamiyatning rasmiy veb-saytida** e'lon beradi. Jamiyatni ixtiyoriy ravishda tugatish to'g'risidagi e'lon ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan uning rasmiy veb-saytiga ham joylashtiriladi".

11. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunni quyidagi mazmundagi 78¹-modda bilan to'ldirish taklif etiladi:

"78¹-modda. Kuzatuv kengash a'zosi, shu jumladan mustaqil kuzatuv kengash a'zosining vakolatlarini boshqa shaxsga berish

Kuzatuv kengashi yig'ilishlarida ishtirok etish huquqi kuzatuv kengash a'zosi, shu jumladan mustaqil kuzatuv kengash a'zosi tomonidan shaxsan yoki uning vakillari orqali amalga oshiriladi.

Kuzatuv kengash a'zosi, shu jumladan mustaqil kuzatuv kengash a'zosi kuzatuv kengash yig'ilishlarida o'z vakilini istalgan vaqtda almashtirishga yoki yig'ilishda shaxsan o'zi ishtirok etishga haqli.

Vakil kuzatuv kengash yig'ilishidagi ishtiroki ishonchnoma yoki ishonchli boshqaruv shartnomasi asosida amalga oshiriladi hamda ushbu hujjatlar ovoz berish huquqini tasdiqlaydi.

Kuzatuv kengash a'zosi, shu jumladan mustaqil kuzatuv kengash a'zosi vakilining ishtiroki kengash yig'ilish bayonnomasida ko'rsatilishi kerak.

Kuzatuv kengash a'zosining vakili, shu jumladan mustaqil kuzatuv kengash a'zosi vakolatlari sun'iy intellekt orqali boshqarilishi mumkin".

12. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 109-moddasiga quyidagi mazmundagi o'zgartirish kiritish maqsadga muvofiq:

"Auditorlik tashkiloti jamiyat bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonunchilikda belgilangan tartibda jamiyat moliya-xo'jalik va korporativ raqamli boshqaruv faoliyatini tekshirilishini amalga oshiradi va unga auditorlik xulosasini taqdim etadi. Auditorlik tashkiloti jamiyatning moliyaviy hisoboti va moliyaga doir boshqa axborot haqidagi noto'g'ri xulosani, korporativ sun'iy intellekt faoliyati bilan bog'liq noto'g'ri tahlilni o'z ichiga olgan auditorlik xulosasi tuzilganligi oqibatida yetkazilgan zarar uchun jamiyat oldida javobgar bo'ladi".

13. Xalqaro tajribalarni (Yevropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya, AQSH, Yaponiya, Xitoy) tahlil qilgan holda dissertantning fikricha sun'iy intellekt xatarlaridan ko'rilgan zararni kamaytirishda sug'urta instituti muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois sug'urta kompaniyalari uchun alohida "sun'iy intellekt egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash" borasidagi alohida qoidalardan iborat normativ hujjat qabul qilish maqsadga muvofiq.

14. EHM uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasiga aloqador fuqarolik qonunchiligida uch pog'onali tartibga solish (FK, "Mualliflik va turdosh huquqlar to'g'risida", "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida"gi qonunlar) amaliyoti mavjud. Agar unga sohaga oid qonun osti hujjatlarini ham qo'shsak to'rt pog'onaliga aylanadi. Fikrimizcha fuqarolik qonunchiligini inventarizatsiyadan o'tkazish va imkon qadar ikki pog'onali tartibga solishni joriy etish zarur.

O'zbekiston Respublikasining EHM uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi bilan bog'liq qonunchilikni sun'iy intellekt tizimlari, neyron tarmoqlar, genetik algoritmlar, blokcheyn i kriptovalyuta tizimlari, internet ashyolar (IoT), Kvant hisoblash algoritmlari, robototexnika va avtonom tizimlar kabi zamonaviy dasturiy ta'minotlarni inobatga olgan holda qayta ko'rib chiqish va uni "Mualliflik va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunda alohida bob qilgan holda tartibga solish zarur. Bu dualistik tartibga solishga ham chek qo'yadi.

III. Huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish yuzasidan takliflar:

1. Dissertant sun'iy intellektning korporativ boshqaruvdagi ishtirokini huquqiy mustahkamlash konsepsiyasini ishlab chiqishni taklif etadi (ilova qilingan) va unda quyidagilar tavsiya etiladi:

Jamiyat-shaxs-davlat-sun'iy intellekt muvozanatini ta'minlovchi, xalqaro standartlar, milliy korporativ qadriyatlarni inobatga olgan qonun hujjatlari va axloq qoidalarini qabul qilish;

huquqiy, texnik, moliyaviy standartlar integratsiyasi, shaffoflik, nazorat va monitoringda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yimaslik;

milliy manfaatlarga mos, investitsiyaviy jozibadorlikni ta'minlaydigan korporativ boshqaruvga yo'naltirilgan sun'iy intellekt dasturlarini ishlab chiqish;

sun'iy intellekt qo'llanilgan korporativ boshqaruvda ochiqlik siyosatini jamoatchilik manfaatlari va "ijtimoiy davlat" tamoyili bilan hisoblashgan holda yo'lga qo'yish;

"Sun'iy intellekt to'g'risida", "Korporativ boshqaruvda sun'iy intellektni qo'llash to'g'risida", "Sun'iy intellekt tizimlarining xavfsizligi to'g'risida", "Sun'iy intellektni qo'llashda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida", "Sun'iy intellekt sohasidagi javobgarlik to'g'risida"gi qonunlarni qabul qilish.

2. Korporativ sun'iy intellektni qo'llash borasidagi hujjatlarda yirik kompaniyalar manfaatiga mos - monopol qoidalar (sun'iy intellekt joriy qilishda cheklovlar, ayrim toifa shaxslar uchun imtiyozlar berish, ustav fond miqdoriga talab qo'yish, maxsus ruxsat metodidan foydalanish, yagona dasturiy ta'minotchi orqali joriy etish talabini qo'yish) belgilanishini oldini olish maqsadida sohaga daxldor ayrim nodavlat notijorat tashkilotlari, intellektual mulk agentligi (vakolat doirasida), iste'molchilar huquqlarini himoya qilish federatsiyasining munosabat bildirish tartibini hamda sohaga oid qonun hujjati qabul qilinayotganda (o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilayotganda) **"jamoatchilik ekspertizasi"**ni yo'lga qo'yish zarurligi asoslantirib berilgan.

3. Sun'iy intellekt joriy qilingan kompaniya Korporativ kodekslarida boshqaruv zaif qatlamining huquq va manfaatlarini himoya qiladigan quyidagi asosiy huquqlarni kiritish maqsadga muvofiq:

korporativ sun'iy intellekt boshqaruvi tartib-taomillari, sun'iy intellekt dastur yaratuvchisi haqida to'g'ri va to'liq ma'lumot olish;

korporativ sun'iy intellekt boshqaruvining xavfsiz bo'lishi;

korporativ sun'iy intellektning g'ayriqonuniy harakati (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan zararining to'liq hajmda qoplanishi;

buzilgan huquqlari yoki qonuniy manfaatlari himoya qilinishini so'rab sudga, boshqa vakolatli davlat organlariga murojaat etish.

4. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi, Davlat mulklarini boshqarish agentligi, Adliya vazirligi, Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti va "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki Direksiyasi" MCHJ hamkorlikda namunaviy "sun'iy intellekt joriy qilingan kompaniya korporativ boshqaruv kodeksi" ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Bu texnik, huquqiy, iqtisodiy me'yorlarni bir loyihaga birlashtiradi va yuridik texnika nuqtayi nazaridan haqiqiy shablon vazifasini bajaradi. Mazkur kodeks sun'iy intellekt, korporativ axloq va boshqaruv sohalaridan eng yaxshi amaliyotlarni mujassamlashtiradi. Shu bilan birga dastlabki sun'iy intellekt qo'llanilgan davrda texnik va tashkiliy muammolarni bartaraf etadi.

5. O‘zbekistonda intellektual mulk borasida alohida sud amaliyotini tahlil etib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 23-iyundagi “Intellektual mulkka oid ishlarni ko‘rib chiqishning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 19-son, 2014-yil 20-iyundagi “Iqtisodiy sudlar tomonidan korporativ nizolarni hal etishning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 262-son hamda 2015-yil 27-noyabrdagi “Aksiyadorlik va boshqa xo‘jalik jamiyatlari tomonidan ular haqidagi axborotni oshkor qilishning belgilangan tartibi buzilgan holda amalga oshirilgan (qabul qilingan) bitimlarni (qarorlarni) haqiqiy emas deb topishning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 290-son qarorlarini sohani raqamlashtirish va sun‘iy intellektni qo‘llash muammolarini inobatga olgan holda qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

6. Muallif Toshkent davlat yuridik Universitetida kiberhuquq yo‘nalishida mutaxassislar tayyorlashni yo‘lga qo‘yilganligini ijobiy baholab, huquqshunoslarning sun‘iy intellekt dasturiy ta‘minoti bilan birga ishlash ko‘nikmasini shakllantirish maqsadida huquqshunos, iqtisodchi va texnik mutaxassislar birgalikda o‘quv dasturlari, qo‘llanma va darsliklar ishlab chiqishi ijobiy samara berishini asoslantirib beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01. ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЮРИДИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ЮЛДАШЕВ ЖАХОНГИР ИНОМОВИЧ

**ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В КОРПОРАТИВНОМ
УПРАВЛЕНИИ**

12.00.03. – Гражданское право. Предпринимательское право.
Семейное право. Международное частное право.

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора юридических наук (DSc)

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора наук (Doctor of Science) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2023.3.DSc/Yu255.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном юридическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.tsul.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:

Окюлов Оманбай

доктор юридических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Гулямов Саид Саидахарович

доктор юридических наук, профессор

Топилдиев Восиджон Рахимжонович

доктор юридических наук, профессор

Кулдашев Нуриддин Абдуганиевич

доктор юридических наук, профессор

Ведущая организация:

Правоохранительная академия Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится 14 декабря 2024 года в 14:00 на заседании Научного совета DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 при Ташкентском государственном юридическом университете (Адрес: 100047, г. Ташкент, улица Сайилгох, 35. Тел.: (99871) 233-66-36; факс: (99871) 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного юридического университета (зарегистрировано за № 1323). (Адрес: 100047, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 13. Тел.: (99871) 233-66-36).

Автореферат диссертации разослан «29» ноября 2024 года.
(протокол реестра № 61 от «29» ноября 2024 года).

И.Р. Рустамбеков

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней,
доктор юридических наук,
профессор

Д.Ю. Хабибуллаев

Научный секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней,
кандидат юридических наук,
профессор

Б.К. Ходжаев

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире внедрение искусственного интеллекта в корпоративное управление стремительно развивается от футуристической концепции (творческого видения, основанного на современных технологиях, научных открытиях и социальных тенденциях) к реальности. Все шире используются преимущества технологий искусственного интеллекта, внедренных в корпоративное управление (далее в тексте – корпоративный искусственный интеллект), в процессах принятия бизнес-решений, координации данных и управлении рисками. Например, согласно данным McKinsey Global Survey, более 50% компаний в глобальном масштабе применяют как минимум одну бизнес-функцию искусственного интеллекта в корпоративном управлении⁸. Согласно отчету Deloitte, 40% крупных компаний используют искусственный интеллект для управления рисками и мониторинга соответствия как часть системы корпоративного управления⁹. Актуальность темы подчеркивается тем, что в корпоративно-правовых отношениях остается неясным вопрос правового статуса (субъектности) и юридической ответственности искусственного интеллекта.

В мире проводятся исследования, посвященные многочисленным проблемам, связанным с неопределенностью правового регулирования при внедрении современных технологий в управление, вопросам гражданско-правовой ответственности за действия программного обеспечения искусственного интеллекта (ошибки в корпоративных решениях, вмешательство в персональные данные при обработке информации, причинение ущерба и т.п.), прозрачности и подотчетности в управлении искусственным интеллектом, соблюдению корпоративной этики искусственным интеллектом, защите прав и интересов третьих лиц в результате корпоративного управления искусственным интеллектом.

В нашей стране также осуществляется ряд эффективных мер в этом направлении. Одной из приоритетных задач является вхождение Узбекистана к 2030 году в число ведущих инновационно развитых государств путем развития цифровой экономики. Узбекистан также определяет важные меры в этом направлении, рассматривая технологии искусственного интеллекта как драйвер развития ближайшего будущего. «В результате стремительного развития информационных технологий объем цифровых услуг за шесть месяцев 2024 года превысил 21 трлн сумов, к концу года ожидается достижение 43 трлн сумов. В отрасли экспортировано услуг на 367 млн долларов. Количество резидентов IT-парка увеличилось на 577 и превысило 2 тысячи. Искусственный интеллект внедряется во многие сферы»¹⁰. Согласно Указу Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60, в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы (цель 52)

⁸ <https://www.mckinsey.com/capabilities/quantumblack/our-insights/the-state-of-ai>

⁹ <https://www2.deloitte.com/us/en/insights/searchresults.html?q=AI%20in%20Risk%20Management%20and%20Compliance>

¹⁰ https://www.uza.uz/uz/posts/suniy-intellekt-va-startap-loyihalarni-rivozhlantirish-boyicha-taqdimot-otkazildi_624672

запланировано улучшение позиции Республики Узбекистан в Глобальном инновационном индексе и включение в топ-50 стран рейтинга до 2030 года¹¹.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, установленных в Гражданском кодексе Республики Узбекистан (1995, 1996), Законе Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров» (2014), Указе Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» и мерах по её эффективной реализации» от 5 октября 2020 года № УП-6079, Постановлениях «О мерах по созданию условий для ускоренного внедрения технологий искусственного интеллекта» от 17 февраля 2021 года № ПП-4996, «О мерах по внедрению Специального режима применения технологий искусственного интеллекта» от 26 августа 2021 года № ПП-5234, «О мерах по дальнейшему совершенствованию правовых основ корпоративных отношений» от 8 ноября 2022 года № ПП-415, Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан «Об утверждении Положения о порядке организации и функционирования специального режима для поддержки технологий искусственного интеллекта» от 29 ноября 2021 года № 717 и других законодательных актах.

Связь исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики. Данная диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и способов их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информированного общества и демократического государства».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации¹². Научные исследования по правовому регулированию использования искусственного интеллекта в корпоративном управлении проводятся в ведущих научных центрах и университетах мира, в частности в Школе менеджмента Слоана Массачусетского технологического института (MIT), Гарвардской школе бизнеса, Оксфордском университете, Кембриджском университете и его Институте менеджмента, Национальном университете Сингапура, Токийском университете, Сеульском национальном университете, Гонконгском университете, Пекинском университете, Московском государственном университете имени М.В. Ломоносова (Россия), Санкт-Петербургском государственном университете (Россия).

По вопросам корпоративного искусственного интеллекта проводятся научные исследования во многих развитых странах. В частности, в Школе менеджмента Слоана Массачусетского технологического института (MIT) исследуется влияние искусственного интеллекта на корпоративное

¹¹ Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы» от 28 января 2022 года № УП 60. <https://lex.uz/docs/5841063>

¹² Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации был осуществлен на основе <https://mitsloan.mit.edu/>, <https://www.hbs.edu/>, <https://www.oii.ox.ac.uk/>, <https://www.cam.ac.uk/>, <https://nus.edu.sg/>, <https://www.u-tokyo.ac.jp/en/>, <https://en.snu.ac.kr/>, <https://www.hku.hk/>, <https://english.pku.edu.cn/>, www.msu.ru, www.spbu.ru и других источников.

управление, принятие решений на уровне совета директоров и управление рисками, в Гарвардской школе бизнеса – стратегии использования искусственного интеллекта в совершенствовании корпоративного управления и повышении эффективности бизнес-процессов, в Оксфордском университете – этические аспекты и правовые проблемы использования искусственного интеллекта в корпоративном управлении, в Кембриджском университете и его Институте менеджмента проводятся исследования по устойчивому развитию влияния искусственного интеллекта на корпоративное управление. В Азии в Национальном университете Сингапура исследуется использование искусственного интеллекта в корпоративной этике и её регулировании, в Токийском университете – правовые аспекты искусственного интеллекта в бизнесе и корпоративном управлении, в Сеульском национальном университете – применение корпоративного искусственного интеллекта для повышения прозрачности и эффективности, в Гонконгском университете – корпоративное управление искусственным интеллектом, связанное с азиатскими рынками, в Пекинском университете – правовые аспекты применения искусственного интеллекта в корпоративном управлении. Кроме того, исследования в этой области проводятся и в научных учреждениях СНГ.

Научные исследования в области правового регулирования корпоративного искусственного интеллекта охватывают различные аспекты. Основные направления исследований связаны с корпоративной этикой и соответствием искусственного интеллекта, разработкой правовых стандартов использования искусственного интеллекта в корпоративном управлении, защитой данных и уважением прав человека, юридической ответственностью за решения, принятые искусственным интеллектом, влиянием интеллектуальных алгоритмов на права и интересы акционеров и инвесторов.

Степень изученности проблемы. В Узбекистане проблемы, связанные с предметом исследования в областях гражданского права, права интеллектуальной собственности, корпоративного права, киберправа, исследованы в научных работах таких правоведов, как Х.Р.Рахманкулов, И.Б.Зокиров, О.Окюлов, С.С.Гулямов, Н.Ф.Имомов, И.Р.Рустамбеков, Д.М.Караходжаева, Ш.Н.Рузиназаров, В.Р.Топилдиев, В.Ё.Эргашев, И.Насриев, К.М.Мехмонов, Б.Р.Топилдиев, А.Н.Якубов, Р.Х.Хурсанов, О.С.Нарзиев, С.С.Бозаров, У.П.Холмирзаев, А.Э.Джумагулов¹³.

В рамках предмета исследования в государствах СНГ существуют исследования А.Т.Зуба, А.В.Минбалеева, М.Б.Добробовой, А.А.Ефремова, А.А.Шитовой, А.Ю.Марченко, Т.В.Морозовой, Е.Д.Сороковой, Р.Р.Ушницкого, Д.В.Ломакина, И.С.Шиткиной, О.А.Макаровой, Т.В.Кашаниной, А.А.Карших, П.М.Морхата, Д.А.Сумского, В.А.Лаптева, а в зарубежных странах – исследования таких ученых, как Henry Hansmann, Reinier Kraakman, Blair and Lynn A., David Keay, Renee Adams, Steven Shavell, Andreas Cahn, Margaret M. Armour, John R. M.G.Gault, Louis R. Kaplow, Tirole J., David C. Donald., Chesterman S., Wein L., Colum L., Beck S., Anderson, P.,

¹³ Научные работы данных ученых приведены в списке использованной литературы.

Brown, M., Taylor R. Lee, M. Johnson, A, Smith B. Martin, S, Johnson T, Williams, R., Wilson, J, Thompson K, Zhang L, Li, W, Wang, H, Andrew A. Schwartz, Smith, T., Johnson R., Lee S., Johnson R., Bryson J.J., Diamantis M. E., Grant T. D., Custers B., Leeuw F. и других¹⁴.

